

“O‘zbektelekom” Aksiyadorlik Kompaniyasiga 2024-yilning 2-choragi davomida
(1-aprel-1-iyul holatiga) jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan
murojaatlar to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

“O‘zbektelekom” AKga joriy yilning 2 choragi davomida jami 1 355 ta jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari kelib tushgan bo‘lib, 1-chorak davomida (1 725 ta)ni tashkil etgan, ya’ni 21 % ga kamaygan.

Shulardan, simli internet tarmog‘iga ulanish bo‘yicha 388 ta (635 ta), simli internet sifati bo‘yicha 374 ta (458 ta), aloqa va axborot texnologiyalari xodimi xatti-harakatlari 90 ta (108 ta), mobil aloqa sifati 51 ta (41 ta), mobil aloqa tayanch (baza) stansiyalarini o‘rnatish yoki olib tashlash 44 ta (51 ta), mobil aloqa xizmatlari narxlari va tariflari 35 ta (45 ta), tabriklar, minnatdorlik va tashakkurnomalar 35 ta (39 ta) va turli masalalarda 338 ta (363 ta) murojaat kelib tushgan bo‘lib, barcha murojaatlarga o‘rnatilgan tartibda hamda belgilangan muddatlarda javob berilgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqishda joriy yilning 2-choragi davomida kelib tushgan barcha murojaatlarning qanoatlantirish darajasi 97 % tashkil etgan bo‘lib, 1-chorak davomida 96 % (+1 %)ni tashkil etgan.

Shuningdek, Kompaniya rahbariyati tomonidan joylarda jismoniy va yuridik shaxs vakillari uchun sayyor qabullar tashkil etish bo‘yicha Kompaniyaning tegishli farmoyishi bilan tasdiqlangan sayyor qabullar jadvaliga asosan, joriy yil aprel-iyun oylarida Namangan viloyatining Namangan tumani, Buxoro viloyatining Buxoro shahri, Sirdaryo viloyatining Guliston shaharlarida sayyor qabullar tashkil etilgan.